

---

**Mahalla ahlining murojaati ijobi hal etilib, yangi transformator o'rnatildi**  
Sayyor qabullar va mahalla fuqarolar yinlaridagi o'rganishlar davomida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bildirilgan muammolar, murojaatlarni ijobi hal etish maqsadida Farg'ona shahar hokimligida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Murojaatlarni ijobi hal etilishi shaxsan shahar hokimi tomonidan nazorat qilinmoqda.

"Shodlik" mahalla fuqarolar yig'inidagi aholi vakillari tomonidan elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida amaliy yordam so'rab qilingan murojaat ham ijobi hal etildi. Bugun Qo'rg'ontagi ko'chasida joylashgan, ta'mirga muhtoj bo'lgan transformatorni yangi va katta quvvatga ega bo'lganiga almashtirildi.

Murojaatlariga alohida e'tibor qaratilib, ijobi hal etilganligidan mahalla ahli hursand bo'lishdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-02-15 22:08:46